O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

O’ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI “KINO, TELEVIDYENIYE VA RADIO SAN’ATI” FAKULTETI

“SAN’ATSHUNOSLIK JURNALISTIKASI” BO’LIMI

“SAN’AT ASARLARI TAHLILI, TANQIDI VA TARG’IBI ” FANIDAN

# KURS ISHI

**MAVZU: Shuhrat Rizayevning “Diskoteka” pyesasi tahlili**

**BAJARDI: Rahimov E.**

**QABUL QILDI: s.f.d., prof. M.Hamidova,**

**o’qituvchi K.Sagdullayev**

**TOSHKENT - 2012**

# Diskoteka.

Xalqimizning shunday gapi bor: farzandga tug'ilganidan 7 yoshigacha shoh deb, 7 yoshidan, 15 yoshigacha qul deb, 15 yoshidan keyin esa dўst deb qarash lozim. Shu ўrinda nega u bu gaplarni gapiryapti degan savol tuiladi? Yuqorida aytilgan sўzlarning sababi shuki, ayni damda men farzand tarbiyasi, uning ota-ona oldidagi burchi, ota-onaning farzand oldidagi burchi, hozirgi yoshlarning dunyoqarashi va kata yoshdagi kўpchilik insonlarning dunyoqarashi ўrtasidagi qarama qarshilik, tafovut, yoshlarning mustaqillik sari intilishlari kerakligi asosiy oya qilib olingan, dramaturg Shuhrat Rizaevning “Diskoteka” nomli pyesasi haqida fikr yuritmoqchiman. Avvalambor asarning qisqacha mazmuniga tўxtalib ўtsam.Muallifning ўzi ta'kidlaganidek, “Asar voqealari shu kunlarda Toshkent shahrida bўlib ўtadi”. Voqealar asosan ikki kun, umumiy olib qaraganda esa 8,9 kun oraliida davom etadi. Asarda 12 ta qahramon bўlib, ularning asosiylarini ўsmirlar tashkil etadi.Asar voqealari 6ta maktab davridagi sobiq sinfdoshlar, ayni damda esa turli xil kollej bitiruvchilari bўlgan dўstlarning diskotekadagi navbatdagi uchrashuvlaridan boshlanadi. Tabiatan soddadil, ochiq kўngil va asardagi bosh qahramonlardan biri bўlgan Sabohat musiqa va raqs avjiga chiqqanida sheriklaridan ajrab chiqib, bir chetda ularni tomosha qilib ўtirgan, bir muncha fe'li torroq, shaddod, birovning aybini shartta yuziga aytadigani uchun kўpchilik “hazm” qila olmaydigan va nohaqlikni kўrsa chidab tura olmaydigan dugonasi Qunduzning yoniga kelib, uni raqsga taklif qiladi. Qunduz esa rad javobini berib turgan bir paytda ularning yoniga Sanjar kelib qўshiladi.Sanjar badavlat oilaning farzandi bўlib, otasining obrўsiga kerilib yuradigan, yengil hayotga kўnikib qolgan, chiroyi, qaddi-qomatining kўrkamligi bilan uncha-muncha qizlarning kўnglidan joy olgan yigit.U kelishi bilan Qunduz ikkalasi tortishib qolishadi.Bir zumda qolgan dўstlari ham ularning oldiga yetib kelishadi. Kўngli pok, samimiy va soddadilliklari bilan bir-biridan umuman farq qilmaydigan Ravshan va Feruza darhol tortishuvning oldini olishadi. Davraga asarning bosh qahramoni Oybek qўshilganida esa suhbat qiziy boshlaydi. Oybek qolgan dў;stlariga nisbatan aqlliroq, ma'naviyatliroq, ўz fikriga, hayot tanloviga ega, har sўzni ўylab, chuqur mulohaza qilib gapiradigan yigit. Ravshan bilan Oybekning, Oybekning

qanaqadir ish qilmoqchi bўlib yurgani haqidagi suhbatlariga tushunmagan Qunduz ulardan ranjib qoladi.

Oybek bu yili ўqishga kirish niyati yўq, Qashqadaryo viloyatiga ish qilish uchun, ya’ni ўzi mustaqil bўlish uchun ketmoqchi bўladi.“Mustaqillik” haqida yuragiga sevgi nashtarini sanchgan Sabohat bilan ham gaplashib, uni ham shunga boshlagan edi.Ayni dam esa ularning ota-onalari bu rejalardan bexabar.Agar xabar topishsa-chi, keyin nima bўladi?Asarda shu savol orqali tugun tugiladi.Diskotekadan sўng yoshlar uy-uyiga tarqaydilar. Yonma-yon qўshni bўlgan Oybek va Sabohat uylariga borib, ular kelgunicha diskotekaning illatlarini muhokama qilib ulgurgan ota-onalaridan koyish eshitishadi. Oybek shu bahona kelgusi rejalari haqida dadasiga gapirib ўtadi. Adabiyot sohasida uncha-muncha obrўga erishib qўygan, 15 yildan buyon Yozuvchi Oybekning hayoti va ijodini ўrganib yurgan oybekshunos olim, yozuvchi Oybekka kuchli mehr qўyganidan xotini dilbarning ham ismini eshitib, Oybek asarlaridagi obrazlardan biriga mos tushgani uchun unga uylangan, keyinchalik farzandlariga ham Oybekning asarlari qahramonlarining ismini qўygan Shuhrat aka ўli Oybedkning mustaqil bўlish haqidagi fikriga butunlay qarshi chiqadi. Ўliga ishongani uchun, uning yurish-turishiga beparvoroq, hatto diskotekaga ham borishga doim ruhsat beradigan Oybekning oyisi Dilbarxon ham ўlining fikriga qarshi chiqadi. Biroq, zamonaviy keksalardan bўlgan, ўzi sakson yoshda bўlsa ham yigitdek ayrati jўshib turadigan, mehnatkash va pok kўngilli otalari, ya’ni Oybekning bobosi, Zoyirf otaning qistovlari bilan rozi bўlishadi. Bu orada sabohat ham uyida oyisidan tuzukkina sўkish eshitadi.Biroq, u mustaqil bўlish fikrini oyisiga aytolmaydi.Oybek iqtisodiyot kollejini bitirayotgani uchun Qashqadaryodagi bir fermer hўjalikda ishlab, keyinchalik ўsha yerda “Diskoteka” ochishning rejasini tuzadi.Tibbiyot kolleji talabasi bўlgan sabohat esa ўsha viloyatdagi stamatolog xolasining yonifda ishlashni kўzlagan edi.Stamatolog xolasi, Gulnorning ўzi kelib, Sabohatni birga olib ketish taklifini bildirib turgani uning joniga oro kiradi.Shўh-shaddod, ushlagan joyini uzadigan Gulnor bir zumda Sabohatning oyisini kўndirib, yuqoridagi asar tuguniga tўlaqonli yechim topib beradi.Oybek bilan Sabohat Qashqadaryoga ketishadi. Bu orada bir necha kun oldin diskotekada hayrlashuv kechasini ўtkazishib, boy otaning ўli, dўstlari Sanjar bilan ham jiddiy tortishib, u bilan oradagi aloqalari

uzilib ketadi. Oybek bilan Sabohat bir birlarini sevgani uchun uzoqqa ketishmaydi.Aslida ular mustaqil bÿlish uchun, ÿzlari intilib, harakat qilib, kelajagini ÿzlari yaratish uchun ketishadi.Buning isbotini ularning borgan viloyatlarida boshqa-boshqa tumanlarga joylashishigandan bilish mumkin. Asar poezd bekatida Oybek va Sabohatni dÿstlari viloyatga kuzatib, sÿng diskotekaga yÿl olishlari bilan yakun topadi.

Yozilgan asarning mazmun-mohiyatini tushunmoqchi bÿlsak, dastavval uning nomini tushunmoimiz darkor.Hÿsh, nega diskoteka?Muallif asarni nega diskoteka bilan boshlab, diskoteka bilan yakunladi. Bu savolga shunday javob topish mumkin: Avvalambor diskoteka hozirgi kunda yoshlarning ÿyin kulgusi uchun deyarli shiorga aylanib qoldi. Muallif bu yerda diskoteka orqali nafaqat yoshlarning hozirgi kundagi hayotga qarashlari haqida gapiradi balki, ota-onalarga farzandlari kundan-kunga jadallab borayotgan zamonning farzandlari ekanligi haqida ham ta'kidlab ÿtmoqda.Shuningdek, diskoteka orqali muallif yoshlarga "Bekorchidan hudo bezor" degan maqolni uqtirmoqda.Ya'ni "bekor yurma, hech bÿlmaganda shu singari "Diskoteka" bÿlsa ham ishga tushir.Hamma illatlar aslida turf axil diskotekalarda emas, aslida bekorchilikdan kelib chiqadi" demoqda.Tÿrida, aslini olib qaraganda diskoteka oddiy ÿyin kulgu uchun moslangan zal holos.Uni ishratxona, illatxona, janjalxonaga esa ÿsha bekorchilar aylantiradi.Asarda muallif uni yozish uchun puxta tayyorgarlik kÿrkani yaqqol sezilib turadi. Buni birinchi kÿrinishda Oybek tilidan: ÿzi boshida endi-endi gramplastinkalar chiqa boshlagan paytda, plastinkalar saqlanadigan javonni diskoteka deyilgani, yoshlar tilidagi turli xil zamonaviy "iboralar"ni qÿllashi ham isbotlab turadi. Asarda inson ongiga chuqur ma'naviy ozuqa beradigan: "Rashk, shubha va ishonchsizlikdan kelib chiqadi", "Suv ichayotganda ilon ham chaqmas ekan", "Savob ish qilib ham mazza qilish mumkin", "Har qanaqa mikrob tekinxÿrlik evaziga urchib ketadi", "Pul topishdayam toppish bor" kabi jumlalarni kÿplab uchratish mumkin. Shuningdek pyesani ÿqiganida kitobxon unda ikkita mashqur adiblar asarlarining "Reklama"sini kÿrishi mumkin. Ya'nikim, 2-kÿrinishda Shavkatning, xotini Dilbarga "ozadin yuzlarda tobu, qÿllar xinodin lola rang" deya Fuzuliyning satrini ÿqiydi. Ammo shu ÿrinda muallif Fuzuliyning shunday satrini tanlab qÿllaganki, beihtiyor kitobxon Fuzuliyning ijod namunalarini izlab qoladi.4-

kўrinishdagi Shavkat bilan ўli Oybekning “Qutlu qon” romani ustidagi muhokamalarini, bu muhokamada Oybek Yўlchini qoralab, Mirzakarimboy singari razil kimsani ijobiy qahramon deya kўrsatishi esa shu romanga kitobxon qiziqishini yanada orttirib yuboradi.

4-kўrinishdagi Shavkat va Dilbarxonning suhbatiga e’tibor beraylik. Shavkat diskotekadan qaytgan ўlini koyishi davomida suhbatga Dilbar ham qўshilib ketadi va ўlining tarafini oladi.

**Dilbar:** Noshukur bўlavermang! Vaqtida darsini qilsa, ishlarini bajarsa, vaqtida ўyin kulgusini qilaversin, bola boladay yayrasin-da.

**Shavkat:** Nima men ўynab kulmasin deyapmanmi? Bўsh vaqtini teatr, kinoda ўtkazsin!

**Dilbar:** Shavkat aka, nuqul, teatr, kino deysiz. Ўzingiz meni yaqinda ўsha teatr yo kinoga olib bordingizmi?

**Shavkat:** Nega yana gapni burasan!?

**Dilbar:**Yўq, gapimga javob bering. Qachon meni teatr yo kinoga olib bordingiz?

**Shavkat:** (qўlini silkib) Durustroq kino yo biror bir asar bўlmasa nimasiga borasan?

Bu nima degani? Bu degani: teatr va kinoning oriqli nuqtasini his qilish degani. Bu degani, San’at tarixi, ya’ni misol uchun 50yildan sўng bu asarni ўqigan kitobxon ongida hozirgi zamondagi teatr va kinolarimizning saviyasi haqida tassavvur uyotish degani. Asarda muallif turli-xil udumlar sababli kata isrofgarchiliklar kuchayib ketayotgani haqida kuyunib gapiradi. Bir nechta joyda maktab va oliy ўquv yurtlarida ўqish va ўqitish saviyasining pasayib ketganligiga ham ishora beradi. 4-kўrinishdagi Shavkatning quyidagi gabiga qaraylik: “Shu bolalar bir narsaga zoriqmasin deb, kechalari bilan kўr bўlib har xil oldi qochdi kitoblarni tarjima qilib ўtiraman, chalamullalarning disertatsiyasini yozib beraman…” singari va asar boshidan ohirigacha bўlgan suhbatlarda ishtirokchilar ismlarining ohirgi harflari “tўkilib” tushishi bir

qaraganda oddiy tuyulishi mumkin. Lekin diqqat bilan e'tibor bersak, ўsha yuqoridagi ikki fikr orqali muallif hayotga real qarab boqyapti.

Darhaqiqat, besh qўl barobar emas, mukammal narsaning ўzi yўq deganlaridek, ushbu asarda ham turli xil kamchiliklarga duch kelamiz. Misol: 4-sahnada Shavkatning 80 yoshli otasi Zoyir ota Oybek bilan diskotekaga hos qўshiqqa birgalikda raqs tushishi kitobxonga erishdek tuyuladi. Ўsha sahnada esa Zoyir otaning eshikni qўniroini chalmasdan yoki taqqillatmasdan dabdurustdan Oybeklar tushlik qilib ўtirgan xonaga kirib kelishi ham tushunarsiz.Qishloqda bўlsa, tushunish mumkin, keng hovli, kirib lelaveriladi. Lekin shaharlardagi “Domchilik”ka bu narsa unchayin tўri kelmaydi. 2-parda, 5-kўrinishda esa “Uyqudan endigina uynib turgan Sabohatning singlisi Malohat esnab, qўniroq chalingan eshik tomon borib, uni ochadi.Gulnor xolasining kelganini kўrib, “yuvuqsiz yuzi” ham esidan chiqib ketadi.Shu yurishda dasturxon boshiga ўtirib hamma bilan birgalikda yuziga fotiha tortadi.Sўng shu holda kiyinib, maktabga yўl oladi.Mana shu yerda muallif qahramonining “yuzini yuvib” qўyganida durustroq bўlar edi.2-parda, 6-kўrinishda diskotekada Oybek bilan hayrlashuv kechasida Qunduz bilan Sanjar tain tortishib qolishadi.Sanjar Qunduzga nisbatan kata pastkashlik qiladi.Ya'ni maktab davrlarida Qunduzning unga xat yozib, yalinib yurganini yuziga soladi.Buning jazosini ham oladi albatta. Biroq, shu tobda Sanjar diskotekadan chiqib ketayotganida Qunduzning unga yana sўnggi xatim deya xat uzatishi umuman aqlga simaydi. Qolaversa kўrinishning shu qismi na voqealarning oldini bilan na keyini bilan aloqadorligi yўq. shu sababli bu qismni pyesada ortiqcha deb hisoblash mumkin. Ammo bu holatlar asarda ўsmir yoshlarning tilidadan aytilayotgan ўtkir, ma'noli fikrlar sehri ortida kўrinmay ham qoladi.Nima bўlganda ham, yўdan bori yaxshi. Bu Shuhrat Rizaevning ikki parda va yeti kўrinishdan iborat “Diskoteka” deb nomlangan hayotiy-maishiy dramasi ham dramaturgiyamizning ўziga hos yutuqlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shuhrat Rizaev. “Ma’naviyat manzillari” Toshkent-2008.